

## **LINGVO-DINSHUNOSLIK DINIY TILNI O'RGANUVCHI FAN SIFATIDA**

**Mirzayeva Mashxura,**  
Farg'ona davlat universiteti magistranti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada lingvo-dinshunoslik diniy tilni o'rganuvchi fan sifatida talqin etiladi. Shu bilan bir qatorda tilshunoslikning keng tadqiq qilinayotgan sohalaridan biri onomastikaning teolingvistika yo'nalishi va uning o'rganish obyekti bo'lgan teonimlar haqida fikr yuritiladi. Teonimlar diniy tushunchalarni ifodalovchi so'zlar bo'lib, ularning tilshunoslikdagi o'rni va jamiyatdagi roli haqida ma'lumotlar beriladi.

**Kalit so'zlar:** teonim, teolingvistika, onomastika, lingvo-dinshunoslik, diniy til

## **LINGUO-RELIGIOUS STUDIES AS A SCIENCE THAT STUDIES RELIGIOUS LANGUAGE**

**Mirzayeva Mashkhura,**  
Master's student at Fergana State University

**Abstract:** In this article, linguo-religious studies are interpreted as a discipline that studies religious language. Additionally, one of the widely researched areas of linguistics, onomastics, will be discussed, particularly focusing on the subfield of teolinguistics and its object of study teonyms. Teonyms are words that express religious concepts, and the article provides information about their role in linguistics and their significance in society.

**Key words:** theonym, theolinguistics, onomastics, linguo-didactics, religious language.

## **ЛИНГВО-РЕЛИГИОВЕДЕНИЕ КАК НАУКА ИЗУЧАЮЩАЯ РЕЛИГИОЗНЫЙ ЯЗЫК**

**Мирзаева Машхура,**  
Магистрант Ферганского государственного университета

**Аннотация:** В данной статье лингводидактика рассматривается как наука, изучающая религиозный язык. Наряду с этим также обсуждается одна из широко

исследуемых областей лингвистики – ономастика и направление теолингвистики, а также теонимы, которые являются объектом изучения. Теонимы – это слова, выражающие религиозные концепции и в статье приводится информация об их месте в лингвистике и роли в обществе.

**Ключевые слова:** теоним, теолингвистика, ономастика лингво-дидактика, религиозный язык.

Tilshunoslikda ko‘plab tadqiqotlar olib borilayotgan sohalardan biri onomastikadir. O‘zbek tilshunosligida ushbu soha o‘tgan asrning ikkinchi yarmidan boshlab rivojlangan sohalardan biriga aylandi. Onomastika yunoncha onomastike – “nomlash”, “nom qo‘yish san’ati” degan ma’noni ifodalaydi.<sup>1</sup> Ushbu bo‘lim tilshunoslikning har qanday atoqli nomlarini, ularning paydo bo‘lishi va o‘zgarishini o‘rganuvchi bo‘limi, shuningdek, barcha atoqli nomlar yig‘indisidir.

Nomlar, ularning turlari, nomlanish sabablari bilan shug‘ullanuvchi tilshunoslikning bo‘limiga onomastika (lot. onuma – “nom” so‘zidan olingan) deyiladi.<sup>2</sup> Masalan, *Samarqand, A.Navoiy, Jayhun, Avesto, Imom Buxoriy*.

Onomastika o‘rganish obyektiga ko‘ra birqancha yo‘nalishlarga ajraladi. Ya’ni aynan qaysi obyektни nomlashiga ko‘ra *antroponim, toponim, agionim, andronim, teonim, mifonim, mifozoonim* kabi birliklari va mos ravishda ularni o‘rganuvchi sohalari mavjud.<sup>3</sup> *Antroponimlar* insonlarga qo‘yilgan *Otabek, Kumush, Abdulla Qodiriy* kabi atoqli nomlardir. *Toponimlar Samarqand, Turkiston, Buxoro* kabi geografik hududlarning nomlarini tashkil qiladi. *Mifonim* – afsona, epopeya, ertaklarda uchraydigan atoqli nomlar, masalan, *Odam Ato, Momo Havo; Mifozoonim* – moddiy olamda mavjud bo‘lmagan, ammo afsonalar, rivoyatlarda uchraydigan, insonlar tomonidan mavjudligiga ishoniladigan mavjudotlar – *dev, pari, ajdaho* – deb izohlaniladi. [2:47] *Agionim* – muqaddas deb hisoblanuvchi narsalar, obyektlar, shaxslarning atoqli oti degan ma’noni anglatadi. Payg‘ambarlar nomlari ushbu guruh leksikasini tashkil qiladi. [2:11] *Teonim* – Allohning ismlari, Alloh tushunchasini ifodalovchi – *Yaratgan, Parvardigor, Robbi, Iloh* – leksemlardir.<sup>4</sup> *Allohning nomi* – olamda butun mavjudotni bor qilgan (yaratgan), ularning taqdirini o‘z qo‘lida tutib turuvchi ilohiy kuch (*Alloh, Tangri, Xudo, O‘g‘on*)ning atoqli otidir. [2:58] Aniqroq

<sup>1</sup> Йўлдашев Б. Ўзбек ономастикаси масалалари. – Самарқанд, 2011.

<sup>2</sup> A.Nurmonov, A.Sobirov, Sh.Yusupova. Hozirgi o‘zbek adabiy tili”. –B.216.

<sup>3</sup> Бегматов Э., Улуқов Н. Ўзбек ономастикаси терминларининг изоҳли луғати. – Наманган, 2006.

<sup>4</sup> Улуқов Н. Экзотик лексика. – Тошкент, 2021.

qilib aytganda teonimiya tizimiga Allohning 99 ismi va islomgacha bo'lgan davrdagi xudolarning nomlari kiradi.

*Teolingvistika* – bu din, madaniyat va til o'rtasidagi aloqalarni o'rganuvchi soha hisoblanib, teonimlar diniy shaxslar, xususan, xudo va muqaddas tushunchalarning nomlaridir.<sup>5</sup> Masalan, *Alloh, Xudo, Parvardigor, mushrik, hijrat* kabi.

Bunday nomlar nafaqat madaniy va diniy kontekstda, balki lingvistik jihatdan ham muhim ahamiyatga ega. Ularni o'rganish orqali til va madaniyat o'rtasidagi murakkab munosabatlarni chuqurroq tushunishimiz mumkin.

Din va diniy tushunchalar, diniy til masalalari ilk boshdan dinshunoslik, ilohiyot, falsafa, psixologiya kabi sohalarning o'rganish obyekti hisoblangan. Keyinchalik tilshunoslikda sotsiolingvistika, pragmalingvistika, lingvikulturologiya, psixolingvistika kabi yangi yo'nalishlarning paydo bo'lishi, shu bilan birgalikda stilistika, matn lingvistikasi sohasida olib borilgan turli uslubga tegishli bo'lgan matnlarning o'zaro farqlanishi yuzasidan olib borilgan tadqiqotlar diniy matn uslubini o'rganishni ham taqazo etdi.

Din madaniyatning ajralmas qismi bo'lish bilan bir vaqtda madaniyatni belgilovchi omil hisoblanadi. Darhaqiqat, madaniyatning ko'plab sohalari: me'morchilik, san'at musiqa, adabiyot va boshqa ijodiy faoliyatlar din bilan chambarchas bog'liq va uning ta'sirida rivojlanib, boyib boradi. Insonning hayoti va faoliyatiga ikki omil – din va madaniyat doimiy ta'sir etib turadi. Zero, din va madaniyat inson uchun ilhom o'chog'i bo'lib xizmat qiladi. Ushbu ikki omilni so'z ko'rinishida voqealanishi tildir. Til – diniy, madaniy ma'lumotlarni og'zaki ko'rinishda ifodalaydi, saqlaydi va uzatadi. Ayni paytda ma'lum bir etnik guruhning madaniyati va dinini ifodalaydi.

Xulosa qilib aytganda, lingvo-dinshunoslik diniy tilni tadqiq qiluvchi yangi yo'nalish hisoblanib, uning o'rganish obyekti diniy leksikadir. Soha bo'yicha keng ko'lamlı tadqiqotlar amalga oshirilayotganiga qaramay, diniy leksik birliklarning guruhlanishi ya'ni, andronim, antroponim, teonim, mifonim, agnonimlar orasidagi chegarani aniqlash o'z yechimini kutayotgan masalalar hisoblanadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. A.Nurmonov, A.Sobirov, Sh.Yusupova. Hozirgi o'zbek adabiy tili".

---

<sup>5</sup> Примов А. Ўзбек тили теонимларини ўрганиш масалаларига доир. Тил тизими сатҳлари: Семантик функционал ва структур асослар. Республика илмий-амалий анжуман материаллари. – Самарқанд, 2009.

2. Бегматов Э., Улуқов Н. Ўзбек ономастикаси терминларининг изоҳли луғати. – Наманган, 2006.
3. Elmurodova S. Hozirgi zamon tilshunosligida teonimlarni o'rganishdagi qiyinchiliklar. O'zbekiston Milliy universiteti xabarleri. 2022, 1/12.
4. Примов А. Ўзбек тили теонимларини ўрганиш масалаларига доир. Тил тизими сатҳлари: Семантик-функционал ва структур асослар. Республика илмий-амалий анжуман материаллари. – Самарқанд, 2009.
5. Улуқов Н. Экзотик лексика. – Тошкент, 2021.
6. Йўлдашев Б. Ўзбек ономастикаси масалалари. – Самарқанд, 2011.